“ADVANCED JOURNAL OF UNIVERSITY SCIENCE AND CREATIVE INNOVATIONS”

DIAGNOSTIK PROFILLAR ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING ONGLI O‘QISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL MODELI

Ne’matova Diyora Baxodir qizi
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0009-5592-8635.
E-mail: muslima.malak9797@gmail.com
DOI: 10.67620/ajousci.230041

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongli o‘qish ko‘nikmalarini EGRA-U diagnostikasi natijalariga tayangan holda rivojlantirishning konseptual modeli bayon etiladi. Model maqsadli, diagnostik, texnologik va natijaviy bloklardan iborat bo‘lib, olti-sakkiz haftalik davralar orqali yaxlit tizimga birlashadi. Modelning bog‘lovchi mexanizmi sifatida “to‘rt profil – to‘rt aralashuv yo‘nalishi” tamoyili asoslanadi: o‘qishning oddiy qarashi modeliga ko‘ra ajratilgan to‘rt diagnostik profil (dekodlash ko‘nikmasi shakllanmagan; ravon o‘qiydigan, ammo tushunmaydigan; til bazasi zaif; me’yordagi o‘quvchi) uchun o‘ziga xos texnologiyalar majmui belgilanadi. Profilni aniqlash uchun qaror daraxti, ishni tashkil etish uchun “umumiy o‘zak – guruhli urg‘u” shakli hamda o‘qituvchining diagnostik savodxonligini ta’minlovchi 32 soatlik modul taklif etiladi. Aniqlovchi tajriba ma’lumotlari asosida profillar taqsimoti keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *ongli o‘qish, konseptual model, diagnostik profil, differensiatsiya, EGRA-U, qaror daraxti, davra, o‘qituvchining diagnostik savodxonligi.*

Аннотация. *В статье излагается концептуальная модель развития навыков осознанного чтения учащихся начальных классов с опорой на результаты диагностики EGRA-U. Модель включает целевой, диагностический, технологический и результативный блоки, объединённые в целостную систему посредством шести-восьминедельных циклов. В качестве связующего механизма обосновывается принцип «четыре профиля – четыре направления воздействия»: для каждого из четырёх диагностических профилей, выделенных на основе модели «простого взгляда на чтение» (несформированное декодирование; беглое чтение без понимания; слабая языковая база; норма), определяется свой комплекс технологий. Предлагаются дерево решений для определения профиля, форма организации работы «общее ядро – групповой акцент» и 32-часовой модуль диагностической грамотности учителя. Приводится распределение профилей по данным констатирующего эксперимента.*

Ключевые слова: *осознанное чтение, концептуальная модель, диагностический профиль, дифференциация, EGRA-U, дерево решений, цикл, диагностическая грамотность учителя.*

Abstract. *The article presents a conceptual model for developing primary school pupils’ conscious reading skills based on EGRA-U diagnostic results. The model consists of target, diagnostic, technological and outcome blocks integrated through six-to-eight-week cycles. Its linking mechanism is the principle “four profiles – four lines of intervention”: for each of four diagnostic profiles derived from the simple view of reading (undeveloped decoding; fluent but non-comprehending; weak language base; typical reader) a specific set of technologies is defined. A decision tree for profile identification, a “common core – group emphasis” organisational form and a 32-hour teacher module in diagnostic literacy are proposed. The distribution of profiles from the diagnostic stage of the study is reported.*

Keywords: *conscious reading, conceptual model, diagnostic profile, differentiation, EGRA-U, decision tree, cycle, teacher diagnostic literacy.*

Kirish

Milliy va xalqaro baholash natijalari o‘zbek maktabida o‘qish ta’limining asosiy muammosi texnik o‘qish emas, tushunish ekanini ko‘rsatdi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilari harf va so‘zni yaxshi o‘qiydi, ammo matndan xulosa chiqarish, umumlashtirish va baholashda qiynaladi [12; 13; 14]. Bu muammo o‘lchov bilan hal bo‘lmaydi: o‘lchov natijasi sinfdagi kundalik metodik qarorga aylanmas ekan, u shunchaki raqam bo‘lib qoladi. Shu bois o‘qituvchi mustaqil qo‘llay oladigan, diagnostika bilan rivojlantirishni bog‘laydigan yaxlit tizim zarur.

Bunday tizimning markaziy masalasi — o‘quvchilarning turlicha holatiga qanday javob berish. O‘qishning oddiy qarashi modeli tushunmaslikning kamida ikki xil sababi borligini ko‘rsatadi: dekodlash ko‘nikmasining zaifligi va til bazasining yetishmasligi [7; 8]. Dekodlash ko‘nikmasi zaif o‘quvchi bilan matn tahlilini kuchaytirish kam samara beradi, til bazasi zaif o‘quvchida esa o‘qish mashqlarining ko‘payishi tushunishni o‘stirmaydi. Bir xil dars tuzilishi bu ikki o‘quvchining birortasiga ham to‘liq mos kelmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi diagnostika natijasini metodik qarorga aylantiruvchi, profil asosidagi differensiatsiyaga qurilgan konseptual modelni asoslashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Modelning nazariy asosini uch qarash tashkil etadi. O‘qishning oddiy qarashi (F.Gaf, V.Tanmer, V.Xuver) o‘qib tushunishni dekodlash va tilni tushunishning ko‘paytmasi deb izohlaydi va shu orqali profillarni ajratish uchun koordinatalar beradi [7; 8]. X.Skarboroning “o‘qish arqoni” modeli ikki tarkibiy qismning har biri qanday ko‘nikmalardan tashkil topganini va yosh bilan ularning nisbati qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi [15]. K.Stanovichning “Matfey effekti” esa erta aralashuvning zarurligini asoslaydi: o‘qishda ortda qolgan o‘quvchi kam o‘qiydi va shu tufayli yanada ortda qoladi [16]. Rivojlantirish texnologiyalari bo‘yicha tayanch manbalar A.Palinsar va A.Braunning o‘zaro o‘qitish usuli [10], T.Rafaelning savol–javob munosabatlari texnikasi [11], I.Bek va hammualliflarining lug‘at bilan ishlash tartibi [5] hamda J.Xetti va X.Timperlining qayta aloqa modeli [9] hisoblanadi.

Respublikamizda o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalalari M.Abdijamilova [1], Sh.Murodova [2], N.Nasriddinova [3], N.Xujamkulova [4] tadqiqotlarida o‘quv topshiriqlari va PIRLS yondashuvi nuqtai nazaridan yoritilgan. Biroq bu ishlarda o‘quvchining joriy holatini aniqlab, shu holatga mos ish yo‘nalishini tanlash mexanizmi yaxlit model sifatida ishlab chiqilmagan. Muallifning oldingi ishlarida ongli o‘qishni rivojlantirishning innovatsion strategiyalari [19] va xalqaro tajribalar asosidagi yondashuvlari [20], matn bilan ishlashning interfaol metodlari [21; 24], o‘qituvchi tayyorgarligi va boshqa omillarning ongli o‘qish


natijalariga ta’siri [22] hamda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari [23] o‘rganilgan; mazkur maqola ularni yagona modelga birlashtiradi. Modelni loyihalashda tizimli, faoliyatli, kompetensiyaviy, kognitiv-psixolingvistik, diagnostik-differensial va lingvodidaktik yondashuvlardan foydalanildi; tadqiqot usullari sifatida nazariy tahlil va modellashtirish, pedagogik kuzatuv, EGRA-U vositasi [6] yordamida aniqlovchi tajriba va olingan ma’lumotlarning statistik tahlili qo‘llanildi. Modelning to‘liq bayoni muallifning monografiyasi va o‘quv qo‘llanmasida berilgan [17; 18]. Modelning ayrim tarkibiy qismlari muallifning oldingi maqolalarida asoslangan: ongli o‘qishni rivojlantirishning innovatsion strategiyalari [19], xalqaro tajribalar asosida ongli o‘qishni rivojlantirish [20], o‘qituvchi tayyorgarligi va boshqa omillarning ongli o‘qish natijalariga ta’siri [21], matn bilan ishlashda interfaol metodlar va interaktiv elektron kitoblardan foydalanish [22; 23; 24], tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari [25].

Natijalar va muhokama

Modelning tamoyillari. Model oltita tamoyilga tayanadi: diagnostikaning uzluksizligi (o‘lchov bir martalik tadbir emas, o‘quv jarayonining doimiy qismi); profilga muvofiq differensiatsiya (ish yo‘nalishi o‘quvchining holatidan kelib chiqadi); ko‘nikmalarni parallel rivojlantirish (dekodlash, til bazasi va tushunish strategiyalari ketma-ket emas, bir vaqtda rivojlantiriladi); tezlik — vosita, tushunish — maqsad (ravonlik mashqlari mazmuniy topshiriq bilan tugaydi); matn murakkabligini bosqichma-bosqich oshirish; til va bilimning birgalikda rivojlanishi (lug‘at bilan ishlash mavzuli bilim bloklari ichida olib boriladi).

Modelning tuzilishi. Model o‘zaro bog‘liq to‘rt blokdan iborat. Maqsadli blok ongli o‘qishning ishchi ta’rifini, uning to‘rt darajasini (ochiq axborotni topish, xulosa chiqarish, umumlashtirish va talqin, baholash va munosabat) va sinflar bo‘yicha mo‘ljallarni belgilaydi. Diagnostik blok EGRA-U vositasini (yettita subtest, to‘rt parallel variant, tinglab tushunish subtesti, lug‘at sinovi, o‘quvchi so‘rovnomasi), uch kesim va qisqartirilgan sinf protokolini, to‘rt mezon va o‘n ikki ko‘rsatkichli baholash tizimini o‘z ichiga oladi. Texnologik blok to‘rt yo‘nalishni birlashtiradi: ravonlikni tushunishga yo‘naltirish, lug‘at va bilim zaxirasini kengaytirish, tushunish strategiyalari va savol madaniyatini o‘rgatish, o‘qituvchini tayyorlash. Natijaviy blok kesimlar natijalarini solishtirish, mezonlar bo‘yicha koeffitsiyentlar va integral ko‘rsatkichni hisoblash, profillar taqsimoti dinamikasini kuzatish hamda guruhlar va texnologiyalar nisbatini qayta sozlashni nazarda tutadi. Bloklar olti-sakkiz haftalik davralar orqali yopiq siklga birlashadi: o‘lchov — guruhlash — texnologik ish — nazorat kesimi; o‘quv yilida to‘rt davra va uchta asosiy kesim (A, B, C variantlar) o‘tkaziladi.

“To‘rt profil – to‘rt yo‘nalish” mexanizmi. Modelning bog‘lovchi mexanizmi diagnostik profillardir. O‘qishning oddiy qarashi koordinatalarida (dekodlash va ravonlik — gorizontal o‘q, til bazasi — vertikal o‘q) to‘rt profil ajratiladi (1-rasm). Birinchi profil — dekodlash ko‘nikmasi shakllanmagan o‘quvchi: texnik ko‘rsatkichlar past, tinglab tushunish me’yorida. Ikkinchi profil — ravon o‘qiydigan, ammo tushunmaydigan o‘quvchi: texnik ko‘rsatkichlar me’yorida, o‘qib tushunish past; o‘zbek yozuvining shaffofligi tufayli bu profil maktabimiz uchun eng xos va eng ko‘p e’tibordan chetda qoladigan profildir. Uchinchi profil — til bazasi zaif o‘quvchi: o‘qib ham, tinglab ham tushunish past. To‘rtinchi profil — barcha ko‘rsatkichlari me’yorida bo‘lgan o‘quvchi.



1-rasm. To‘rt diagnostik profil va ularning o‘qishning oddiy qarashi modelidagi o‘rni

Har bir profilga o‘ziga xos aralashuv yo‘nalishi mos keladi (1-jadval). Bu taqsimot texnologiyalarni cheklash uchun emas: har bir texnologiya barcha o‘quvchilar uchun ochiq, ammo davra vaqtining katta qismi qaysi ishga sarflanishini o‘quvchi profili belgilaydi. Ish “umumiy o‘zak – guruhli urg‘u” shaklida tashkil etiladi: sinf bitta matn ustida ishlaydi, lekin guruhlarning topshiriqlari va o‘qituvchi yordamining turi farqlanadi; har kuni ovoz chiqarib o‘qib berish va mustaqil jim o‘qish mashg‘ulotlari butun sinf uchun doimiy bo‘lib qoladi.

1-jadval

Diagnostik profillar va ularga mos aralashuv yo‘nalishlari

Profil	Diagnostik belgilar	Aralashuv yo‘nalishi va ustuvor texnologiyalar
1-profil: dekodlash ko‘nikmasi shakllanmagan	Ma’nosiz so‘zlar va ravonlik past; tinglab tushunish me’yorida	Tovush-harf bog‘lanishi, qiyin grafemalar (sh, ch, ng, o‘, g‘) ustida ish, aks-sado usulida va juftlikda o‘qish, maqsadli takroriy o‘qish; tushunishda tinglab ishtirok etadi
2-profil: ravon o‘qiydi, ammo tushunmaydi	Texnik ko‘rsatkichlar me’yorida; o‘qib tushunish past	Strategiyalarni ochiq o‘rgatish, o‘zaro o‘qitish (savolchi, aniqlovchi, jamlovchi, bashoratchi), savol darajalari, matnni yopib mazmunini tiklash, o‘qilgan matn haqida yozish
3-profil: til bazasi zaif	O‘qib ham, tinglab ham tushunish past; lug‘at zaxirasi tor	Ovoz chiqarib o‘qib berish va suhbat, uch guruhli lug‘at ishi, besh bosqichli so‘z tartibi, o‘zak daraxtlari, mavzuli bilim bloklari, og‘zaki nutq
4-profil: me’yordagi o‘quvchi	Barcha ko‘rsatkichlar me’yorida	Murakkabroq va axborot matnlari, to‘rtinchi daraja savollari, guruhda yetakchi rollar, mustaqil mutolaa

Qaror daraxti. Profilni aniqlash uchun o‘qituvchiga uch savoldan iborat qaror daraxti beriladi. Avval tinglab tushunish tekshiriladi: u past bo‘lsa, o‘quvchi uchinchi yo‘nalishga (til

bazasi) kiritiladi. Keyin ma’nosiz so‘zlarni o‘qish ko‘rsatkichi ko‘riladi: u past bo‘lsa — birinchi yo‘nalish (dekodlash). So‘ngra o‘qib tushunish baholanadi: u past bo‘lsa — ikkinchi yo‘nalish (tushunish strategiyalari), aks holda to‘rtinchi yo‘nalish. Tinglab tushunishning birinchi o‘ringa qo‘yilishi tasodifiy emas: til bazasi zaif o‘quvchida dekodlash va tushunish ko‘rsatkichlari ham past bo‘ladi, shuning uchun uni avval ajratib olmasdan boshqa profillar to‘g‘ri aniqlanmaydi. Ko‘rsatkich ikki daraja chegarasida bo‘lgan holatlarda qisqartirilgan protokol bilan qo‘shimcha tekshiruv va kuzatuv o‘tkaziladi.

O‘qituvchining diagnostik savodxonligi. Modelning to‘rtinchi yo‘nalishi o‘qituvchini tayyorlashdir, chunki tizimning samaradorligi pirovardida uni qo‘llaydigan o‘qituvchining o‘lchay bilishi, natijani to‘g‘ri talqin qilishi va shu asosda qaror qabul qilishiga bog‘liq. Shu maqsadda 32 soatlik “Diagnostik savodxonlik” moduli ishlab chiqildi: nazariy asoslar (6 soat), baholash vositasi bilan ishlash va baholovchilar kelishuvini ta’minlash (10 soat), natijadan qarorga o‘tish — profillash, qaror daraxti, guruhlash (8 soat), texnologiyalar ustaxonasi (8 soat). Modulning uslubiy qoidasi shundan iboratki, o‘qituvchi har bir texnologiyani avval o‘quvchi sifatida o‘zi bajarib ko‘radi. Bir martalik o‘qitish yetarli emasligi hisobga olinib, modelda uzluksiz metodik yordam tizimi (dars kuzatuvi uchun o‘n besh belgili protokol, metodist bilan suhbat, qayta sozlash) nazarda tutilgan.

Aniqlovchi tajriba ma’lumotlari. Model asoslangan taxminlarni tekshirish uchun 2025–2026-o‘quv yili boshida Surxondaryo, Jizzax va Buxoro viloyatlaridagi 10 ta umumta’lim maktabining 2- va 3-sinflarida 532 nafar o‘quvchi EGRA-U ning A varianti bilan baholandi. Profillar taqsimoti quyidagicha bo‘ldi: dekodlash ko‘nikmasi shakllanmagan o‘quvchilar 23,5 foiz, ravon o‘qiydigan, ammo tushunmaydigan o‘quvchilar 25,8 foiz, til bazasi zaif o‘quvchilar 13,5 foiz, barcha ko‘rsatkichlari me’yorida bo‘lgan o‘quvchilar 37,2 foiz. Demak, har to‘rt o‘quvchidan uchtasi u yoki bu yo‘nalishda maqsadli ish talab qiladi va bu ish o‘quvchilarning deyarli teng ulushi uchun turlicha mazmunga ega bo‘lishi kerak. Bu natija bir xil dars tuzilishining cheklanganligini miqdoriy jihatdan tasdiqlaydi va profil asosidagi differensiatsiyaning zarurligini ko‘rsatadi. Sifat kuzatuvlari ham shuni tasdiqladi: o‘quvchilar ochiq axborotni topish savollariga deyarli xatosiz javob bergan holda sabab-natijaga oid va umumlashtiruvchi savollarda ko‘proq qiynaldi.

Modelning mavjud yondashuvlardan farqi uch jihatda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, differensiatsiya o‘quvchining umumiy “kuchli–kuchsiz” bahosiga emas, qiyinchilik sababiga qarab amalga oshiriladi. Ikkinchidan, diagnostika va rivojlantirish bitta davra ichida bog‘langan: har bir davra o‘lchov bilan boshlanadi va nazorat kesimi bilan tugaydi, guruhlar tarkibi esa qat’iy emas, har davrada qayta ko‘rib chiqiladi. Uchinchidan, model o‘qituvchini tizimning ijrochisi emas, diagnost sifatida ko‘radi va unga buning uchun vosita (EGRA-U, qaror daraxti, qisqartirilgan protokol) hamda tayyorgarlik (modul) beradi.

Xulosa

Diagnostik profillar asosidagi konseptual model boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ongli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘lchov natijasini kundalik metodik qarorga aylantiruvchi yaxlit tizimni taklif etadi. Uning yangiligi maqsadli, diagnostik, texnologik va natijaviy bloklarning olti-sakkiz haftalik davralar orqali uzviyligi hamda “to‘rt profil – to‘rt aralashuv yo‘nalishi” mexanizmida namoyon bo‘ladi. Aniqlovchi tajriba o‘quvchilarning to‘rtdan uch qismi turlicha mazmundagi maqsadli ishga muhtojligini ko‘rsatdi, bu esa modelning amaliy zarurligini tasdiqlaydi. Modelning samaradorligi shakllantiruvchi tajriba-sinovda tekshirilmoqda; uning natijalari va ularning matematik-statistik tahlili keyingi maqolada yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdijamilova M.M. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning o‘qib tushunish malakalarini shakllantirish metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus: Ajiniyoz nomidagi NDPI, 2025. – 155 b.
2. Murodova Sh.I. O‘quvchilarda o‘qish savodxonligini rivojlantiruvchi o‘quv topshiriqlari ustida ishlash metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2024.
3. Nasriddinova N.A. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirish metodikasi: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025.
4. Xujamkulova N.R. Umumta’lim maktablarida xalqaro dasturlar asosida o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini takomillashtirish (PIRLS, EGRA xalqaro dasturlari asosida): Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamDU, 2024. – 60 b.
5. Beck I.L., McKeown M.G., Kucan L. Bringing Words to Life: Robust Vocabulary Instruction. – 2nd ed. – New York: Guilford Press, 2013.
6. Dubeck M.M., Gove A. The early grade reading assessment (EGRA): Its theoretical foundation, purpose, and limitations // International Journal of Educational Development. – 2015. – Vol. 40. – P. 315–322.
7. Gough P.B., Tunmer W.E. Decoding, reading, and reading disability // Remedial and Special Education. – 1986. – Vol. 7(1). – P. 6–10.
8. Hoover W.A., Gough P.B. The simple view of reading // Reading and Writing. – 1990. – Vol. 2. – P. 127–160.
9. Hattie J., Timperley H. The power of feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77(1). – P. 81–112.
10. Palincsar A.S., Brown A.L. Reciprocal teaching of comprehension-fostering and comprehension-monitoring activities // Cognition and Instruction. – 1984. – Vol. 1(2). – P. 117–175.
11. Raphael T.E. Teaching question answer relationships, revisited // The Reading Teacher. – 1986. – Vol. 39(6). – P. 516–522.
12. Mullis I.V.S., von Davier M., Foy P., Fishbein B., Reynolds K.A., Wry E. PIRLS 2021 International Results in Reading. – Chestnut Hill: Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
13. Uzbekistan Education for Excellence Program. Early Grade Reading and Mathematics Assessment: Baseline Report. – Research Triangle Park: RTI International, 2022.
14. Uzbekistan Education for Excellence Program. Early Grade Reading and Mathematics Assessment: Endline Impact Evaluation Report. – RTI International, Florida State University, Mississippi State University, 2023.
15. Scarborough H.S. Connecting early language and literacy to later reading (dis)abilities: Evidence, theory, and practice // Handbook of Early Literacy Research. – New York: Guilford Press, 2001. – P. 97–110.
16. Stanovich K.E. Matthew effects in reading: Some consequences of individual differences in the acquisition of literacy // Reading Research Quarterly. – 1986. – Vol. 21(4). – P. 360–407.

17. Ne’matova D.B. Ongli o‘qish ko‘nikmalarini EGRA xalqaro baholash tizimi vositasida rivojlantirish metodikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 178 b. (ISBN 978-9910-15-108-8).
18. Ne’matova D.B. Xalqaro baholash dasturlari asosida o‘qish savodxonligi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2026. – 276 b. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 19-oktabrdagi 5202-006a-d5ab-d227-34f7-6561-3985-son ma’lumotnomasi; ISBN 978-9910-15-113-2).
19. Ne’matova D.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ongli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning innovatsion strategiyalari // TerDPI Ilmiy xabarnomasi. – 2026. – № 2(06). – B. 56–58.
20. Ne’matova D.B. Xalqaro tajribalar asosida o‘quvchilar ongli o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish (EGRA tadqiqotlari misolida) // O‘zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari. – 2025. – № 2(14). – B. 223–228.
21. Abdusamadova S., Ne’matova D. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy o‘qitish metodlari va matn bilan ishlashga asoslangan interfaol yondashuvlar // Ilm-Fan Xabarnomasi. – 2026. – Vol. 14(1). – B. 1928–1930.
22. Nematova D.B., Samadova M.Sh. Factors influencing the development of conscious reading in primary school students // EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements. – 2025. – Vol. 1(12). – P. 678–682.
23. Ne’matova D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Interpretation and Researches. – 2023. – Vol. 2(1).
24. Ne’matova D., Abdusamadova S. Boshlang‘ich sinflarda matn bilan ishlashda interfaol metodlardan foydalanish // “XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish: ta’limda yangicha yondashuvlar va xalqaro tajribalar” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to‘plami. – Qarshi, 2026. – B. 571–…